

## TA'LIM JARAYONIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

*Djurakulova Adolat Xalmuratovna*  
*Termiz davlat universiteti kafedrasi dotsenti*

## РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

*Джуракулова Адолат Халмуратовна*  
*Доцент Термезского государственного университета*



<https://orcid.org/0000-0005-3521-5356>

## DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

*Djurakulova Adolat Khalmuratovna*  
*Associate Professor of Termiz State University*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish haqida so'z yuritilib, "Ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish" mavzusi bo'yicha nazariy, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiruvchi metodlarning mohiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, kommunikatsiya, muloqot, kommunikativ kompetensiya

**Абстракт:** В данной статье говорится о развитии коммуникативной компетентности студентов в учебном процессе, раскрывается сущность методов, развивающих коммуникативную компетентность на теоретических, практических занятиях и самостоятельных занятиях по теме «Развитие коммуникативной компетентности в образовательном процессе».

**Ключевые слова:** образование, общение, коммуникация, коммуникативная компетентность.

**Abstract:** This article talks about the development of communicative competence of students in the educational process, reveals the essence of methods that develop communicative competence in theoretical, practical classes and independent studies on the topic "Development of communicative competence in the educational process."

**Key words:** education, communication, information giving, communicative competence.

**Kirish.** Kommunikativ kompetensiya haqida so'z borganda bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan "kompetensiya", "kommunikativ kompetensiya", "muloqot" kabi asosiy tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'lish kerak. Psixologik lug'atlarda ta'kidlanishicha, "muloqot" tushunchasini ikki yoki undan ortiq insonlarning o'zaro munosabati, ular o'rtasida kognitiv yoki affektiv-baholash xarakteridagi ma'lumotlar almashinuvi sifatida qaraladi. Bundan kommunikativ harakatni amalga oshirishning zaruriy sharti ikki yoki undan ortiq insonlarning bir-

biri bilan ma'lum miqdordagi yangi ma'lumotlarni almashishlari va bir-birlariga yetarli motivatsiyani yetkazishlari tushuniladi.[5.52]

Bugun ta'limda asosiy maqsad va e'tibor yuqori darajadagi umumiy kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faollikka, mustaqil fikrlashga, turli vazifalarni qiyinchiliksiz yenga olish qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassislarni tarbiyalashga qaratilgandir. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchilar kommunikativ kompetensiyaini o'stirish, qaysi sohaga qiziqishi va moyilligi kuchli ekanligiga, intilishlariga qarab ta'lim jarayonlarini

individuallashtirishga, ya'ni yakka tartibda, har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish orqali ta'lim berishga alohida urg'u berilmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunga kelib, ta'lim jarayonlarida o'quvchilarda o'z-o'zini ro'yobga chiqarishda muhim bo'lgan ijodiy tajriba to'plashga, bilim darajasini kengaytirishga xizmat qiluvchi, intilishlar doirasini kengaytiruvchi ta'lim jarayonlarini tashkillashtirishning yanada faol usul va uslublarini izlab topishga harakat qilinmoqda. Tabiiyki, agar shunday qilinmasa keyingi, ya'ni uzluksiz ta'lim bosqichlarda o'z-o'zini ro'yobga chiqaruvchi shaxsni tarbiyalab bo'lmaydi.

**Metodologiya va adabiyotlar.** S.L. Rubinshteyn fikricha kommunikativ kompetentsiya – odamlar o'rtasida aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning murakkab ko'p qirrali jarayoni bo'lib, birgalikdagi faoliyatga bo'lgan ehtiyoj va ma'lumot almashish, o'zaro ta'sirning yagona strategiyasini ishlab chiqish hamda insonlarni his etish va tushunishni o'z ichiga oladi.

E.G.Sabirovaning fikriga ko'ra kommunikativ kompetentsiya – bu boshqa insonlar bilan zarur aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash qobiliyati. Samarali muloqot sheriklarning o'zaro tushunishiga erishish, vaziyatni va muloqot mavzusini yaxshiroq tushunish (vaziyatni tushunishda ko'proq ishonchga erishish muammolarni hal qilishga yordam berish, resurslardan to'g'ri foydalanish orqali maqsadlarga erishishni ta'minlash). Kommunikativ kompetentsiya shaxslararo o'zaro ta'sirning ma'lum bir diapazonida samarali aloqa o'rnatish uchun zarur bo'lgan ichki resurslar tizimi sifatida qaraladi [4.102].

Kommunikativ kompetentsiya – bu pedagogik o'zaro harakat sohasida maxsus ko'rinishga ega bo'lgan muloqot bo'lib, shaxsning nazariy va amaliy tayyorgarligiga asoslangan ongli kommunikativ harakatlar majmuasini tushunamiz, bu esa voqelikni aks ettirish va o'zgartirish uchun bilimlardan ijodiy foydalanish imkonini beradi. Kommunikativ kompetentsiyalarning bir qancha turlari mavjud:

1) insonning insonni tushuna olishi (insonni shaxs sifatida, uning alohida jihatlarini, motiv va ehtiyojlarini baholash, tashqi xulq-atvorini ichki

olami bilan bog'liqlikda ko'rib chiqish, yuz, qo'l, gavda harakatlarini “o'qish” ko'nikmasi)

2) insonni o'z-o'zini anglay olishi (o'z bilimi, qobiliyati, o'z xarakteri va boshqa qirralarini baholash, inson boshqalar tomonidan qay tarzda qabul qilinishi va atrofdegilar ko'zi bilan baholash);

3) muloqot vaziyatini to'g'ri baholay olish ko'nikmasi (mavjud holatni kuzatish, uning namoyon bo'lish belgilari haqida ko'proq axborotlarni ajarata olish, ularga e'tiborni qaratish, yuzaga kelayotgan vaziyatning ijtimoiy va psixologik mohiyatini to'g'ri idrok etish va baholash).

Ko'pincha kommunikativ ko'nikmalar deganda muloqot qilish, bevosita va bilvosita shaxslararo muloqot ko'nikmalari tushuniladi. Shunga ko'ra, kommunikativ kompetensiyalar umumiy va kengroq tushuncha – muloqot tarkibiga kiradi. Muloqot – bu ijtimoiy normalar va faoliyat shartlariga muvofiq bilim, g'oya va tajribani oqilona tushunish va ongli uzatishga asoslangan to'g'ridan-to'g'ri munosabatlar, odamlarning bir-biriga munosabati jarayoni.<sup>1</sup> Muloqot jarayonida kishilar o'rtasida fikriy mushtaraklik, o'zaro ta'sir hamda axborot almashinuvi yuzaga kelishi bilan birga, ular ijtimoiy ma'noda bir-biriga tarbiyaviy ta'sir ham o'tkazadilar. Lekin inson tabiatining shunday murakkab qirralari borki, uni mukammal bilish va o'zlashtirib olish mumkin emas.

Muloqot ko'nikmalari - bu o'z fikrlarini to'g'ri, malakali, <sup>2</sup>tushunarli tushuntirish va aloqa sheriklaridan ma'lumotni adekvat idrok etish qobiliyati.

Muloqot ko'nikmalari boshqalar bilan muloqotda va hayot jarayonida shakllanadi.

O'quvchi tengdoshlari jamoasida o'qiganligi sababli, u sinfdoshlari va o'qituvchi bilan hamkorlik qilishga, juftlikda yoki jamoada ishlashga majbur. Ta'limdagi hamkorlik - boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyati samaradorligini ta'minlovchi kommunikativ ta'lim faoliyatini muvaffaqiyatli shakllantirish va rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir.

Maktab o'quvchilarini muloqotdoshlarining fikrlariga mos mulohaza yurita olish, vaziyatni to'g'ri baholash, muloqot shartlarini tushunish,

<sup>1</sup> Песняева, Н.А. Эффективность речевой деятельности младших школьников в учебном диалоге. // Начальная школа. - 2005. - №5. - С. 54 - 56.

<sup>2</sup> Позднякова, Е.В. Формирование коммуникативной культуры у младших школьников. // Начальная школа. - 2001. - №11. - С. 23 - 25.

suhbat muallifi va uning manzili haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish kabi kommunikativ vazifalari haqida o'ylashga o'rgatish lozim.

Muloqot har qanday darsning ajralmas qismi bo'lib, u o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'quv - tarbiya jarayonlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kommunikativ harakatlar - sherikni eshitish, tinglash va tushunish, birgalikdagi faoliyatni rejalashtirish va muvofiqlashtirish, rollarni taqsimlash, bir-birining harakatlarini o'zaro nazorat qilish, muzokaralar olib borish, munozarani olib borish, nutqda o'z fikrlarini to'g'ri ifodalash, hamsuhbatini hurmat qilish, aloqa va hamkorlik qobiliyati kabilarni o'z ichiga oladi.

O'rganish qobiliyati nafaqat o'qituvchi bilan, balki tengdoshlari bilan ham samarali hamkorlik qilish, muloqotga kirishish, yechimlarni izlash va bir-birini qo'llab-quvvatlash qobiliyatini va muloqotga tayyorligini anglatadi.

Kommunikativ kompetentsiyalarning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- ma'lumotni tinglash va uzatish, uni to'g'ri ma'noda qabul qilish qobiliyati;
- boshqalarni tushunish qobiliyati;
- simpatiya, hamdardlik qobiliyati;
- o'zini va o'zgalarni bir xil baholash qobiliyati;
- boshqalarning fikrini to'g'ri qabul qilish qobiliyati;
- nizoli vaziyatlarni hal qila olish qobiliyati;
- jamoadagilar bilan muloqot qilish qobiliyati.

N.V. Kosheleva boshlang'ich sinf o'quvchilarining universal kommunikativ o'quv faoliyatining quyidagi tarkibiy tuzilmasini belgilaydi:

I daraja - yuqori (ijodiy): o'quvchi muloqotga uning hayotdagi zarurligini anglagan holda shaxslararo o'zaro ta'sir sifatida ongli ravishda qiziqish bildiradi, muzokaralar olib borishni biladi, birgalikdagi faoliyat jarayonida ishontira oladi; sheriklar bilan birgalikdagi muloqot natijalarini tanqidiy baholay oladi, qiyin vaziyatlardan chiqish yo'lini topa oladi.

II daraja - o'rtachadan yuqori (mahsulli): o'quvchi muloqotning hayotdagi ahamiyatini tushunadi, muloqotda mustaqil, lekin shaxslararo o'zaro munosabatda doimiy emas, ayrim hollarda tashabbuskor emas, sheriklar bilan muloqot

natijalarini tanqidiy baholamaydi, ko'pincha muloqotdagi qiyin vaziyatlardan chiqish yo'lini topishda qiynaladi.

III daraja - o'rta (moslashuvchan): o'quvchi hayotda muloqot qilish zarurligini tushunadi, lekin unga shaxslararo o'zaro ta'sir jarayoni sifatida doimiy qiziqish bildirmaydi, har doim ham suhbatdoshi bilan muzokaralar olib borishga intilmaydi, muloqot natijalarini mustaqil ravishda baholay olmaydi, qiyin vaziyatlarga dosh berolmaydi.

IV daraja - past (reproduktivga yaqin): o'quvchi, hayotdagi muloqotning ahamiyatini tushunmaydi (ayrim holatlar istisno), muloqotdoshiga nisbatan ongli qiziqishning yetishmasligi ko'rinib turadi, muloqotda mustaqil emas, birgalikdagi faoliyat jarayonida muzokaralar olib borish va ishontirishga qodir emas; deyarli hech qachon muloqotda mas'uliyatli bo'lmaydi, hatto muloqot natijalarini baholamaydi, qiyin vaziyatlardan chiqishga urinmaydi.

Kommunikativ kompetensiya haqida so'z ketganda, refleksiya haqida to'xtalish muhim. Refleksiya – o'zini-o'zi tahlil qilish bo'lib, o'zini-o'zi belgilangan maqsadga erishishi emas, balki bilim olish, tajriba orttirish usuli, ijodga kasbiy jihatidan takomillashtirishga nisbatan rag'batlantirishdir. Kommunikativ refleksiya – muloqot jarayonida sheriklarining o'zaro birlarini tushunib munosabat qilishni ta'minlaydi.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi ushbu ishning muhim qismi bo'lib, talabalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy jihatlarini yoritadi, bu esa o'z navbatida o'quv jarayonida, ayniqsa arifmetik masalalarni yechish usullarini o'qitishga bag'ishlangan kontekst modulida muhim rol o'ynaydi. Muloqot kompetentsiyalari - bu shaxslarga boshqalar bilan samarali munosabatda bo'lish, o'z fikrlarini ifoda etish, ma'lumotlarni tushunish va sharhlash, samarali munosabatlarni o'rnatish imkonini beradigan bilim, ko'nikma va qobiliyatlar yig'indisidir. Talabalarning o'quv faoliyatida faol ishtirokiga e'tibor qaratilayotgan zamonaviy o'quv jarayonida ushbu kompetentsiyalarni rivojlantirish ayniqsa dolzarb bo'lib qoladi.

Muloqot kompetentsiyalari bir nechta asosiy jihatlarini qamrab oladi. Birinchidan, bu lug'at, grammatika, fonetika va boshqa til me'yorlarini bilishni o'z ichiga olgan til kompetensiyasi.

Talabalar nafaqat tilni tushunish va undan foydalanish, balki uni muloqot holatiga qarab moslashtira olishlari kerak, bu esa ulardan moslashuvchanlik va ijodkorlikni talab qiladi.

Ikkinchidan, muhim tarkibiy qism ijtimoiy-madaniy kompetensiya bo'lib, u turli xil ijtimoiy kontekstlarda madaniy xususiyatlar, normalar va muloqot an'alarini bilishni nazarda tutadi. Bu, ayniqsa, ko'p tilli va ko'p madaniyatli jamiyatlarda muhim ahamiyatga ega, bu yerda talabalar turli madaniy kodlar va o'zaro ta'sir qilish usullariga duchor bo'ladilar.

Uchinchi muhim jihat - strategik kompetensiya bo'lib, u o'zaro munosabatlarning maqsadlari va shartlariga qarab turli xil aloqa strategiyalarini tanlash va qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu muzokaralar olib borish, nizolarni hal qilish, savol berish va faol tinglashni o'z ichiga olishi mumkin. To'rtinchi komponent - bu izchil va mantiqiy izchil bayonotlar qurish qobiliyatini, shuningdek, og'zaki nutqdan yozma matngacha bo'lgan turli shakllarda taqdim etilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va sharhlash qobiliyatini o'z ichiga olgan diskursiv kompetensiya.

Yangi avlod standartlarida asosiy o'quv harakatlarini rivojlantirishda kommunikativ o'quv harakatlari oltita asosiy ko'nikma sifatida taqdim etiladi:

1. Hamkorlikdagi faoliyat bo'yicha sheriklar bilan muloqot va o'zaro ta'sir yoki ma'lumot almashish - bu quyidagi ko'nikmalardir: yozma va og'zaki shaklda taqdim etish va xabar berish, o'z pozitsiyasini muhokama qilish va dalillash uchun nutq vositalaridan foydalanish; o'zgalarning fikrini so'rash va qiziqtirish, muloqotga kirishish.

2. Boshqa shaxsning pozitsiyasini hisobga olgan holda harakat qilish va o'z harakatlarini muvofiqlashtira olish qobiliyati quyidagilarni nazarda tutadi: turli fikrlar imkoniyatini tushunish, turli nuqtai nazarlarni muhokama qilishga tayyorlik, taqqoslash va dalillash, bag'rikenglik.

3. O'qituvchi va tengdoshlari bilan o'quv hamkorligini tashkil etish va rejalashtirish - bu ishbilarmonlik yetakchiligi, kognitiv tashabbuskorlik, hamkor harakatlarini nazorat qilish, tuzatish va baholash; nizolarni hal qilish.

4. Guruhda ishlash (shu jumladan o'quv hamkorligi vaziyatlari va loyihaviy ish shakllari) - bu

ish munosabatlarini o'rnatish, samarali hamkorlik qilish va samarali kooperatsiyaga hissa qo'shish qobiliyatidir;

5. Muloqot va hamkorlikning axloqiy va psixologik tamoyillariga amal qilish - bu hissiy qo'llab-quvvatlash, hurmatli ishonch munosabati, empatiya qobiliyati;

6. Nutqiy harakatlar o'z faoliyatini tartibga solish vositasi sifatida - bu yangi aqliy harakatlar va tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida interiorizatsiya - ichki rejaga ko'chirish bosqichi bo'lib xizmat qiladigan nutqiy aks ettirishdir.

Taqdim etilgan ko'nikmalar, bizning fikrimizcha, muloqotning ikki sohasi "O'zgalarning pozitsiyasini hisobga olgan holda muloqot va o'zaro ta'sir" va "Nutq madaniyati"ga tegishli. Birinchisida tashqi o'zaro ta'sir va boshqalar bilan muloqotga urg'u beriladi, ikkinchisida shaxsning ichki plani tushunchalariga murojaat qilinadi.

Kommunikativ kompetensiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

- til kompetensiyasi: nutqiy mulohazalarda foydalanish uchun til materialini egallash;

- sotsiolingvistik kompetensiya: muloqot vaziyatlariga mos ravishda til birliklaridan foydalana olish;

- bahs-munozara kompetensiyasi: bahs-munozaralarda o'zaro bog'liqlikni tushunish va unga erishish qobiliyati;

- nutq kompetensiyasi: ko'z bilan va quloq bilan ko'rsatiladigan matnni tushunish (o'qish, tinglash) va nutq ifodasini hosil qilish (so'zlash, yozish) qobiliyati;

- axborot kompetensiyasi: turli axborot manbalari (lug'atlar, ma'lumotnomalar) ga yo'nalish olish va ulardan o'quv faoliyatida foydalanish qobiliyati;

- ijtimoiy-madaniy kompetensiya: til faoliyatining ijtimoiy-madaniy konteksti bilan tanishish darajasi;

- ijtimoiy kompetensiya: muloqotga kirishish qobiliyati va tayyorligi (o'qitishning interfaol jihati).

**Xulosa.** Aniqki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb muammodir, chunki ushbu ko'nikmalarning shakllanish darajasi nafaqat bolalarni o'qitish samaradorligiga, balki ularning ijtimoiylashuvining butun jarayoniga, shuningdek,

shaxsiy rivojlanishiga bogʻliq. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun xos boʻlgan kommunikativ kompetensiyalar sherikni eshitish, tinglash va tushunish, birgalikdagi faoliyatni rejalashtirish va muvofiqlashtirish, rollarni taqsimlash, bir-birining harakatlarini oʻzaro nazorat qilish, muzokaralar olib borish, munozarani olib borish, nutqda oʻz fikrlarini toʻgʻri ifodalash, hamsuhbatini hurmat qilish, aloqa va hamkorlik qobiliyati kabilarni oʻz ichiga oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sobirova Z.M. Til va ong munosabati. I.S. Vigotskiy psixologik talqinida. Fardu ilmiy xabarlari jurnali. №. 3 (2024), 110-112b
2. Abdullayev Y. Mashhur maʼrifatparvarning ikki darsligi.// Boshlangʻich taʼlim. – 1993, 1-son, 20—22-b.
3. Каган М.С. Диалоги. - СПб.: Издательский дом Санкт-Петербургского государственного университета, 2006.
4. Мостова О.Н. Развитие коммуникативных и познавательных умений младших школьников. // Начальная школа плюс До и После. - 2007. - №6. - С. 52 - 54.
5. Щиголева Н.В. О курсе «Общение» для младших школьников. // Начальная школа. - 2000. - №10. - С. 57 - 59.

